



ERKIN VOHIDOV SHE'RLARINING ASSOTSIATIV STRUKTURASI

Shoymardanova Difuza Baxtiyorovna

Renessans ta'lim universiteti Filologiya fakulteti katta o'qituvchisi

dilfuzashoymardonova@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17933387>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalq shoiri Erkin Vohidov ijodiga lingvistik yondashuv asosida baho berilgan. Xususan, uning she'riy matnlarida qo'llangan assotsiativ birliklar tahlil qilinib, ularning shakllanish manbalari, turlari va badiiy nutqdagi vazifalari yoritilgan. Maqolada stimuly so'z asosida yuzaga kelgan sinonimik, antonimik, partonimik, uyadoshlik, derivatsion va sintaktik munosabatdagi assotsiatsiyalar turlari ko'rib chiqilgan hamda ular matn shakllanishidagi roli aniqlangan.

Kalit so'zlar: assotsiativ birlik, stimuly so'z, sinonimik aloqa, antonimik aloqa, partonimik aloqa, uyadoshlik, she'riy matn, lingvistik tahlil, Erkin Vohidov, badiiy nutq.

Аннотация: В данной статье проводится лингвистический анализ поэтического наследия народного поэта Узбекистана Эркина Вохидова. Особое внимание уделено ассоциативным единицам, использованным в его поэтических текстах. Рассматриваются источники и типы ассоциаций, возникающих на основе стимульных слов, таких как синонимические, антонимические, партонимические, деривационные и синтаксические связи, а также их роль в формировании текста.

Ключевые слова: ассоциативная единица, стимульное слово, синонимическая связь, антонимическая связь, партонимическая связь, однокоренные слова, поэтический текст, лингвистический анализ, Эркин Вохидов, художественная речь.

Annotation: This article offers a linguistic analysis of the poetic works of the Uzbek People's Poet Erkin Vohidov. The focus is on the associative units used in his poetry, examining their origins, types, and roles in artistic speech. Different types of associations based on stimulus words are analyzed, including synonymic, antonymic, paronymic, derivational, and syntactic relationships, highlighting their function in the formation of poetic texts.

Keywords: associative unit, stimulus word, synonymic relation, antonymic relation, paronymic relation, cognate words, poetic text, linguistic analysis, Erkin Vohidov, artistic speech.

Y.N.Karaulovning ta'kidlashicha, tilni uch xil yo'nalishda o'rganish mumkin: birinchidan, til tizimli qurilma sifatida tadqiq etiladi va uning natijasi lug'at va grammatika kabi tizimli tavsiflarda aks etadi; ikkinchidan, til moddiy jihatdan turli xil matnlar to'plami sifatida qaraladi, bu "til" yoki "til-matn" deb ataladi; uchinchidan, til o'ziga xos ideal mohiyat sifatida, ya'ni uning egalarining lisoniy qobiliyati sifatida tasavvur qilinadi¹.

Tilni insonning lisoniy qobiliyati sifatida o'rganishda nutq egalari tomonidan yaratilgan matnlarni tahlil qilish katta o'rin tutadi. Xususan, shoir va yozuvchilar kabi

¹ Караулов Ю.Н. Ассоциативный анализ: новый подход к интерпретации художественного текста // <https://cyberleninka.ru/article/n/assotsiativnyy-analiz-novyy-podhod-k-interpretatsii-hudozhestvennogo-teksta>



soʻz sanʼatkorlari tomonidan ishlab chiqarilgan badiiy obrazli matnlar ularning lisoniy qobiliyatlarining imkoniyatlarini ochib beradi.

S.M.Karpenkoning fikricha, muallifning oʻziga xos dunyoqarashi sheʼriy asar tilida lingvistik vositalar, asosiy soʻzlar, matn assotsiatsiyalari, yaratilgan obrazlar tizimi va boshqa elementlar orqali namoyon boʻladi. Olamning konseptual tasviri matnda shaxsiy idrok prizmasidan oʻtgan bilimlar, taassurotlar va gʻoyalar majmuasi sifatida aks etadi. Olamning lisoniy tasvirini konseptual tasvir bilan bogʻlovchi asosiy vositalardan biri soʻzlarning assotsiativ aloqalaridir. Agar olamning konseptual tasvirining dinamik tabiati hisobga olinsa, ijodkorning bir stimuly soʻzga nisbatan assotsiatsiyalari uning ijodining turli davrlarida oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlishi mantiqan asoslidir².

Oʻzbek xalq shoiri E.Vohidovning badiiy merosi adabiyotshunoslar tomonidan chuqur oʻrganilgan. Ushbu ulugʻ adibning asarlari tilshunoslik nuqtai nazaridan ham tahlil qilingan. Masalan, S.Maxsumovanning “E.Vohidov asarlarining konnotativ xususiyatlari” nomli nomzodlik dissertatsiyasida shoir asarlarida konnotatsiyani shakllantiruvchi til vositalari aniqlanib, ularning lisoniy xususiyatlari oʻrganilgan va konnotativ birliklarning badiiy matnning taʼsirchanligini oshirishdagi roli asoslangan³.

G.Keldiyorovanning “Oʻzbek badiiy nutqida antiteza (E.Vohidov sheʼriyati misolida)” nomli dissertatsiyasida shoir sheʼrlarida antiteza sanʼatining badiiylikni yaratishdagi ahamiyati yoritilgan⁴.

B.Yoʻldoshev va Q.Xalilov hamkorligida yozilgan “Shoir Erkin Vohidovning frazeologizm qoʻllash mahorati haqida” risolasida shoir asarlarida ishlatilgan frazeologizmlarning badiiy obraz yaratishdagi oʻrni, sheʼriy matnda konnotativ maʼno hosil qilishi tahlil qilinib, shoirning frazeologik birliklardan foydalanish mahorati ochib berilgan⁵.

Koʻrinib turibdiki, E.Vohidov asarlari tilshunoslikda turli tadqiqotlar obʼekti boʻlgan. Biroq, bu ijodkorning asarlarida assotsiativ bogʻlangan birliklarning sheʼriy matn hosil qilishdagi roli, ularning shakllanish omillari va xususiyatlari alohida tadqiq qilinmagan. Quyida shoirning sheʼriy asarlarining assotsiativ tuzilishi tahlil qilinadi.

² Карпенко С.М. Кўрсатилган тадқиқот // <https://www.dissercat.com/content/assotsiativnye-svyazi-slova-v-uzuse-i-poeticheskom-tekste-na-materiale-tvorchestva-n-s-gumil>

³ Максумова С. Э.Вохидов асарларида коннотативликнинг ифодаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2012. – 150 б.

⁴ Келдиёрова Г. Ўзбек бадий нутқида антитеза (Э.Вохидов шеърийати мисолида): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 26 б.

⁵ Йўлдошев Б., Халилов Қ. Шoir Эркин Вохидовнинг фразеологизм қўллаш маҳорати ҳақида. – Самарқанд, 2007. – 96 б.



E.Vohidov she'rlarida qo'llanilgan assotsiativ birliklar stimul so'z bilan sinonimik, antonimik, partonimik, uyadoshlik munosabatlariga, shuningdek, umumiy derivatsion va pragmatik xususiyatlarga asoslanib hosil bo'lgan. D.Lutfullaeva ta'kidlaganidek, "shoir tomonidan yaratilgan verbal assotsiatsiyalar uning xotirasida tiklangan o'zbek tili leksikasining sinonimik, antonimik paradigmalari, uyadoshlari va bo'yoqdor qatlamini o'ziga xos tarzda namoyon qiladi.⁶" Bu holat shoirning quyidagi she'rlarida yaqqol ko'rinadi:

Kamtarlik haqida

*Garchi shuncha mag'rur tursa ham,
Piyolaga egilar choynak.
Shunday ekan, **manmanlik** nechun,
Kibru havo nimaga kerak?*

***Kamtarin** bo'l, hatto bir qadam
O'tma g'urur ostonasidan.
Piyolani inson shuning-chun
O'par doim peshonasidan.*

Ushbu she'rda *manmanlik* va *kibru havo* assotsiatsiyalari *kamtarlik* stimul so'ziga nisbatan antonim sifatida xotirada tiklanadi. *Kamtarin* assotsiatsiyasi esa *kamtarlik* so'zi bilan bir asosdan yasalganligi sababli assotsiativ munosabatga kirishadi.

Shoir quyidagi she'rlarida sinonimik munosabatdagi *sevgi – ishq, quyosh – oftob* assotsiativ birliklaridan samarali foydalangan:

Sevgi

*Sevgiga she'r bitding, Erkin,
Besabab ermaski, **ishq** –
Aylagach ko'ngulni **ishg'ol**,
She'r ila mashg'ul qilur.*

Quyosh

*Deydilar, **ishq** otashidan
Oftob ham taft olur;
Gar isinmoq istasa
Qalbimga jo bo'lsin **quyosh**.*

E.Vohidov she'rlarida stimul so'z sifatida so'z birikmasi yoki gap shaklidagi birliklar ko'p uchraydi. Shoir ko'pincha "*Bu ko'hna hasrat*", "*Qaro qoshing*", "*Bizlar arra tortmoqdamiz*", "*Barcha shodlik senga bo'lsin*", "*Qalin puli*" kabi so'z

⁶ Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017. – Б. 69.



birikmasi yoki gap shaklidagi sarlavhalarni tanlaydi. Bunday she'rlarda stimuly so'zga nisbatan sintaktik sinonimlar hosil bo'ladi. Masalan:

Demang, shoir tinib ketdi

Demang, shoir tinib ketdi, Siyosatga inib ketdi.

Va yo aytmangki, mo'rt toldek, Shamollarda sinib ketdi.

Siz, ey lutf bahrida g'avvos, U sizni sog'inib ketdi.

Demang,shoir jimib ketdi, G'azal yozmay tinib ketdi.

Tinib ketsa, bilingizki, Yog'och otga minib ketdi.

Bu she'rda stimuly so'z sifatida "Demang, shoir tinib ketdi" gapi ishlatilgan va unga sinonim sifatida "Demang, shoir jimib ketdi" gapi qo'llanilgan.

Yaxshilik

Marhamatli inson ko'ngli doim oq,

Barchaga barobar dargohi kengdir.

Lekin yomonga ham yaxshilik qilmoq,

Yaxshiga yomonlik qilmoqqa tengdir.

Bu she'rda yaxshilik qilmoq assotsiatsiyasi yaxshilik stimuly so'ziga nisbatan derivatsion asosda hosil bo'lgan.

To'rtlik

She'ning sozi – to'rt satr,

To'rt ajoyib – zo'r satr.

Shoir odam o'zini

To'rt satrda ko'rsatur.

Bu she'rda to'rtlik, she'r, satr (3) uyadosh so'zlari she'riy matnning tayanch birliklari bo'lib, to'rtlik stimuly so'ziga nisbatan assotsiativ birlik sifatida shoir xotirasida tiklangan.

Shoir she'rlarida stimuly so'zga nisbatan partonimik munosabatdagi assotsiatsiyalar ham uchraydi. Partonimik munosabat so'zlarning inson xotirasida birga tiklanishiga olib keladi. Masalan, qo'l so'zi barmoq so'zini, tana so'zi bosh so'zini xotirada tiklaydi. E.Vohidovning "Soch madhi" she'rida soch stimuly so'ziga nisbatan partonimik munosabatdagi bosh so'zi qo'llanilgan:

Do'stginam, boshingni tik tut,

Arzigay faxr aylasang,

Bu kabi oppoq ochilgan

Guli qiyg'oching bilan.

Shoirning "Qo'llar" qasidasida esa qo'l – tana assotsiativ juftligi bo'lak – butun munosabatiga asoslanib yuzaga kelgan:

Qo'llar



Taningda kamtarin a'zo

Bu qo'llardir, bu qo'llardir,

Mudom mehnat uchun paydo

Bu qo'llardir, bu qo'llardir.

Ko'rinib turibdiki, shoir she'rlarining assotsiativ tuzilishida sinonimik, antonimik, uyadoshlik, partonimik, giponimik munosabatlarga ega va umumiy derivatsion xususiyatga asoslangan birliklar stimol so'z bilan assotsiativ aloqada bo'lib, matni shakllantiruvchi tayanch birliklar vazifasini bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, E.Vohidov she'rlarining assotsiativ tuzilishida quyidagi turdagi assotsiativ birliklar mavjud:

1. Stimul so'z bilan bevosita bog'langan assotsiativ birliklar;
2. Stimul so'z bilan bilvosita bog'langan assotsiativ birliklar;
3. Stimul so'zga nisbatan sinonimik, antonimik, uyadoshlik, partonimik munosabatdagi assotsiativ birliklar;
4. Struktur jihatdan so'z, so'z birikmasi va gap shaklidagi assotsiativ birliklar.

Shoir she'rlaridagi bu rang-barang assotsiatsiyalar uning beqiyos assotsiativ tafakkurga ega ekanligini, tafakkur mahsullarini she'rda obrazli tarzda aks ettirish qobiliyatiga ega betakror iste'dod sohibi ekanligini va tildan o'z o'rnida samarali foydalana olishini ko'rsatadi. A.Oripov ta'kidlaganidek, "Ona tilimizning ipakdek mayin, kamalakdek rang-barang shamoyili, nozik lutf, beozor qochirimlar, goh xazin, goh samimiy tabassum uyg'otuvchi tashbehlar, o'tkir xulosalar – bularning bari ulkan shoirimizning qalamiga mansub betakror fazilatlaridir."⁷

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Болотнова Н.С. Лексическая структура художественного текста в ассоциативном аспекте. – Томск: Томский. гос. пед. ин-т. 1994. – С. 6-7.
2. Караулов Ю.Н. Ассоциативный анализ: новый подход к интерпретации художественного текста // <https://cyberleninka.ru/article/n/assotsiativnyy-analiz-novyy-podhod> -k-interpretatsii-hudozhestvennogo -teksta
3. Карпенко С.М. Кўрсатилган тадқиқот // <https://www.dissercat.com/content/assotsiativnye-svyazi-slova-v-uzuse-i-poeticheskom-tekste-na-materiale-tvorchestva-n-s-gumil>
4. Максумова С. Э.Воҳидов асарларида коннотативликнинг ифодаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2012. – 150 б.
5. Келдиёрова Г. Ўзбек бадиий нутқида антитеза (Э.Воҳидов шеърлари мисолида): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 26 б.
6. Йўлдошев Б., Халилов Қ. Шоир Эркин Воҳидовнинг фразеологизм қўллаш маҳорати ҳақида. – Самарқанд, 2007. – 96 б.
7. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017. – Б. 69.
8. Ҳожи А.Ориф. Сўз сеҳри / Э. Воҳидов. Яхшидир аччиқ ҳақиқат. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1992. – Б. 3.

⁷ Ҳожи А.Ориф. Сўз сеҳри / Э. Воҳидов. Яхшидир аччиқ ҳақиқат. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1992. – Б. 3.